

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

ASQAD MUXTOR IJODIDA INSON VA INSONIYLIK MASALASINING YORITILISHI

Usmonova Xusnida Xamidjon qizi

Farg'ona davlat universiteti filologiya fakulteti o'zbek tili yo'nalishi 2-bosqich talabasi

+998770195054 usmonovahusnida626@gmail.com

Ilmiy rahbar: Xamidov Mirolimbek Mansurovich

Annotatsiya; Ushbu maqolada Asqad Muxtor ijodida inson va insoniylik masalasi, ichki kechinma va tuyg'ular uyg'unligi, ma'no ko'lamdorligi, asarlarining inson tafakkuriga ta'siri haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: insoniylik, insoniylik konsepsiyasi, mohiyat, ichki kechinmalar, badiiyat yuksak mahorat.

Badiiy adabiyot insonga eng tez ta'sir qiluvchi san'at turidir. U odamlarning ichki va tashqi dunyosini ham ochib bera oladi. So'z san'atining bu turi orqali ko'plab his-tuyg'ularni ifodalash mumkin bo'ladi. Hayotdagi barcha voqea-hodisalarni yozuvchi bir so'z yoki gap bilan o'quvchiga mahorat bilan yetkazib bera oladi. Hamma yozuvchilarning o'z uslubi mavjud, ular uslublari orqali o'quvchiga fikrlarini ifodalab berishadi, ularning ba'zilar to'g'ridan to'g'ri fikrlarini qog'ozga tushursalar, yana ba'zilar xulosa qilishni, yakun yasashni kitobxonga qoldirishadi. Yana shunday ijodkorlar ham borki, ularning asarlari bir o'qishda tushunarli bo'lmaydi, qayta-qayta o'qish orqali yozuvchi maqsadining tag zamirini anglash mumkin bo'ladi. Shunday ijodkorlar sirasiga Asqad Muxtorni ham qo'shishimiz mumkin.

Asqad Muxtor asarlari ko'plab kitobxonlar uchun tanish va uning asarlari uslubi, tuzilishi jihatdan boshqa ijodkorlar uslubidan farq qiladi. Asqad Muxtor o'z asarlari tufayli, falsafiy lirikasi va badiiy yuksak tarjimalari bilan o'zbek adabiyotiga katta hissa qo'shgan haqida bilamiz. Ko'plab hikoya, qissa, roman, she'riy to'plam, pyesa, tarjimalari orqali shuhrat qozongan ijodkor ijodidagi o'ziga hos falsafa kitobxonlar mehrini qozonishiga sabab bo'lgan.

Asqad Muxtor ijodidagi asosiy konsepsiya insoniylikdir, ko'plab asarlarining asosiy g'oyasi va tag zamiri ham shu hisolanadi. Asosan, hikoyalarda, she'rlarida buning isbotini ko'rishimiz mumkin.

Adibning "Taft" nomli hikoyasida bu konsepsiya ilgari suriladi, hayotga insonlar har xil ko'z bilan boqishi, hammaning ham maqsadi bir xil emasligi, ko'zga ko'rinadi, bir xilday ko'ringan vaziyatlarni hamma tufa xil idrok etishi, qabul qilishi, his etishi mumkinligi haqida so'z boradi.

Yuqorida eslaganimizday bu asar ham o'quvchiga ayni lahzada tushunarli bo'lmasligi mumkin. Uning mohiyatini tushungandan so'ng esa adibning mahorati yuz ko'rsata boshlaydi. Asqad Muxtor hikoyalarining asosiy qismini hayotiy hikoyalar tashkil qiladi, ya'ni hayotidagi kichik voqealarni hikoya shakliga keltirib, kitobxonga taqdim etgan, ko'rgan-kechirganlarini bayon qilgan desak ham adashmaymiz. Shuning uchun ham har bir hikoyasida, tabiiyki, inson konsepsiyasi ilgari suriladi va umumiy ma'noda inson konsepsiyasi ijodkor asarlarida asar mohiyatini ochib beruvchi katta ustun hisoblanadi.

Hayotda asarlarda uchragandan ko‘ra ming chandon yomonroq holatlar yuz berishi mumkin, lekin ijodkor o‘sha davrga, muhitga bizni olib kiradi va bizga ong tomonlama ta‘sir qiladi. Shuning uchun asarlari bilan tanishgan kitobxon o‘zida o‘sha voqeaning asosiy qahramoni kabi his qiladi. Bu, albatta, adibning yuksak mahoratidan darak beradi. Insoniylikning sof tuyg‘ulari Asqad Muxtor o‘z asarlarida shunday ochib bera olganki, qahramonlarning o‘zlarini tutishi, gap-so‘zlaridan ham jamiyat haqidagi ko‘p haqiqatlar ochiq-oydin oshkor etilgan.

Asqad Muxtor o‘z asarlari orqali ilgari suradigan maqsadi taraqqiyotdan ortda qolayotgan davrni uyg‘otish, tarixning achchiq davridagi insoniyat va uning qismati haqida eslatish, kichik voqea orasida butun bir jamiyatni, tuzumni aks ettirishdir. Bunday teran g‘oyalarni ilgari surilishini quyidagi hikoyalarida ham uchratishimiz mumkin.

Asqad Muxtorning “Omon qolgan odam”, “Ko‘k tosh”, “Atir” hikoyalarida jamiyat va inson falsafasi asosiy o‘rinni egallaydi.

Adibning “Omon qolgan odam” hikoyasida bashariyatni larzaga solgan urush tufayli necha-necha insonlar taqdiri, hayoti, orzu-umidlarining barbod bo‘lishi aks etgan. Hikoyaning bosh qahramoni hayotini ham, keljagini ham urush yo‘qqa chiqarganini ko‘rishimiz mumkin. Voqealar davomida qattiq iztirob chekadi, aqldan ozadi. Buni esa adib oddiygina yozib qo‘ymasdan, o‘quvchilarga uch so‘z bilan tushuntirishga harakat qiladi va xulosa qilishni kitobxonni o‘ziga qoldiradi.

“Atir” hikoyasi esa ayolning ichki kechinmalarini ifodalashga xizmat qilgan. Bu hikoya orqali ayol kishining kichik hadyadan ham dunyolarcha sevinishi, har qanday ayolga mehr-muhabbat kerakligi, doim e‘tiborga muhtoj ekanligini yozuvchi isbotlab bera olgan. Uning asarlarida har qanday insonda kechadigan ichki kechinmalar ifoda etiladi, biroq ochiq oydin emas. Shu tufayli ham adibning asarlari o‘quvchini qayta-qayta o‘qishga majbur etadi.

“Ko‘k tosh” hikoyasi esa asarlari orasidagi badiiy ko‘lami, ifoda yo‘sini nuqtai nazaridan qolganlaridan ajralib turadigandek.

“Shu “Seniki-meniki” degan faqat odamda bo‘ladi, nazarimda – urush-janjali ham, qirg‘ini ham shundan, o‘limi ham, kulfati ham. Tag‘in, buning gunohini o‘zlaridan soqit qilish uchun, mening to‘g‘rimda mudhish afsonalar to‘qishganini aytmaysizmi!”[1,57]

Hikoyadan keltirilgan mazkur parchada yozuvchi tosh nomidan odamlar to‘g‘risida fikr yuritayotgandek. Asqad Muxtorning bu hikoyasi bo‘yicha insonlar doim u-bu narsani talashish bilan vaqt o‘tkazishadi, lekin hamma urush va janjalning asosi ham shu deb yoziladi, hikoyadagi bu toshni esa kulfat keltiruvchi deya atashlari ham keltirilgan: “Shunday qilib, odamlarga es kiribdi, deb bamaylixtir yotsam, e-voh, nadomatlar bo‘lsinki...

Bir kuni yana kelib qolishdi. Bu safar ular ko‘pchilik edi, na afsonaga, na qismatga, na xudoga, na arvohga ishonadigan odamlar. Kelishdi-yu, bismillosiz, qo‘llariga mirsangu cho‘kich olishdi.

Ular hali... ertasiga jahon bo‘ylab qonli qirg‘in boshlanishini, to‘rt yil davomida ellik milliondan ortiq inson yer tishlashini bilishmas edi.

Bu 1941-yilning 21-iyuni edi-da. Hali tarixning eng fojiali tongi otmagan edi”.[1,58]

Insoniyat bu toshda har qanday maqsadda foydalanishdi. Uni kulfat keltiruvchi tosh deb hisoblashgan. Oxirgi marotaba uni joyidan qo‘zg‘atishganida esa birinchi Jahon urushi boshlanishi haqida ham bayon qilingan.

Xulosa qilib aytadiganda Asqad Muxtor hikoyalarida insoniylik masalasi, ichki kechinmalar haqida bayon qilingan va uni o‘quvchiga ta‘siri ham o‘zgacha. Adib tomonidan yaratilgan asarlarida o‘ziga xos uslub, badiiy yuksaklik yetakchilik qilganligi bois bu asarlar kitobxonlar qalbidan chuqur joy egallab kelmoqda.

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.Muxtor.Insonga qulluq qiladurmen.2008
2. Tog‘aev O. Asqad Muxtor. Toshkent. „Toshkent“, 1966.
3. O‘tkir Rashid. Adabiyot 8- sinflar uchun darslik majmua 2-qism
4. Baxtiyoro va Rayxona.Asqad Muxtor she‘riyatida inson konsepsiyasi.